



AYRIM XORIJIY DAVLATLAR JINOYAT HUQUQIDA TALON-TAROJ QILISH JINOYATLARI VA UNING BAHOLANUVCHI MEZONLARI XUSUSIYATLARI

Sharipov Normurod Raim o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

normurodsharipov20@gmail.com telefon raqam (+99894) 97-515-68-62

Annotatsiya:

Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 164–169-moddalarida nazarda tutilgan o'zgarlar mol-mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq jinoyatlar tahlil qilinib, bunda ushbu turdagi jinoyatlarning ayrim xorijiy davlatlar jinoyat kodekslaridagi talon-taroj qilish jinoyatlari va uning baholanuvchi mezonlari xususiyatlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: jinoyat huquqi, talon-toroj, bosqinchilik, tovlamachilik, firibgarlik, o'g'irlik, obyektiv tomon, mulk, zo'rlik, tahdid, Jinoyat kodeksi.

Kirish:

Bugungi kunda mulkning hamda mulk huquqining daxlsizligi eng yuqori turuvchi ahamiyatga ega qadriyatlardan biri sifatida qaralmoqda. Biroq, o'zgarlar mulkini qonunga xilof ravishda egallash holatlarining turli shakllari va yangi usullari ortib borayotganligi sababli mazkur mavzuni doimiy tahlil qilib borish hamda zamonaviy yechimlar berish zarurati yuzaga kelmoqda.

Talon-tarojga berilgan ta'riflarning ko'pchiligida tarixiy rivojlanishining keyingi bosqichida mulkni qonunga xilof tarzda olib qo'yish, mulkdor yoki boshqa mulk egasidan, ularga moddiy zarar yetkazish kabi belgilar ham ko'rsatib o'tilgan [2; 10-11-b].

Jumladan, professor M.X.Rustamboyevning fikricha, talon-taroj qilish o'zgarlar mulkini o'z foydasi, boshqa shaxslar foydasi uchun qonunga xilof tarzda va bepul o'ziga qaratib olishdir [3; 214-b]. R. Qobulovning nazarda tutishicha, talon-taroj qasddan, g'arazli, huquqqa xilof va o'rnini qoplamasdan, o'zgarlar mulkini egallab,



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econferences.com

16th June, 2025

mulkdor yoki boshqa mulk egasi ixtiyoridan, ularga moddiy zarar yetkazib olib qo'yishdir [2; 53-b].

Asosiy qism. Ayrim xorijiy davlatlar jinoyat talon-taroj qilish jinoyatlari va uning baholanuvchi mezonlari xususiyatlari

Bitiruv malakaviy ishining ushbu bobida mulkni talon taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlarning xususiyatlari xorijiy davlatlar tajribasi misolida o'rganiladi. Ushbu davlatlarning xorijiy tajribasini o'rganishdan asosiy maqsad O'zbekiston Respublikasi mahalliy jinoyat qonunchiligi bo'yicha zo'rlik ishlatib qasddan sodir etladigan talon taroj qilish jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlikni optimallashtirishning ijobiy aspektlarini aniqlashdan iboratdir. Bundan tashqari, bunday tahlil ushbu natijalardan shunchaki ko'r-ko'rona ko'chirishning oldini olib, O'zbekiston Respublikasi sharoitida ushbu so'nggi tendensiyalar va qonun qoidalar tizimini ijobiy implementatsiya qilish imkoniyatini beradi. Jinoyatlarning tarkibi sifatida talon-taroj qilish jinoyatlarining turli shakllari deyarli barcha davlatlarning jinoyat qonunchiligida mavjud. Aynan shu o'xshashliklar mahalliy O'zbekiston Respublikasi jinoiy-huquqiy doktrinasini boshqa huquqiy tizimlar bilan bog'liq holda ko'rib chiqishga imkon beradi, chunki chet el qonun ijodkorligini milliy huquq sohasini maqsadli bilish, o'ziga xos xususiyatlar o'rganish faqat ularni qiyosiy tanqidiy o'rganish orqali muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Shunga ko'ra ushbu paragraf, turli xil huquqiy tizimlarga ega bo'lgan davlatlarda qasddan mulkni talon taroj qilish shakllariga qarshi jinoiy-huquqiy kurashni tartibga soluvchi normalarni tahlil qilishga, O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida qiyosiy huquqshunoslik usulidan foydalangan holda mulkka tajovuz qilishning yangi usullari uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi qoidalardan foydalanish imkoniyatini aniqlashga bag'ishlangan.

Mulkni talon-taroj qilish jinoyatining ayrim xorijiy davlatlar tajribasida o'rganishni o'g'irlik misolida ko'rib chiqamiz. Chet tajribasini Ispaniya misolida o'rganib chiqishni boshlaymiz. Ispaniya qonun chiqaruvchi organlari, O'zbekiston Respublikasi kabi, o'g'irlikni aynan mulkka qarshi jinoyat deb tan oladilar. O'zbekiston xamda Ispaniya jinoyat qonunchiligining o'g'irlik bilan bog'liq bo'lgan qilmishlardagi asosiy farq ma'muriy preyditsiya xisoblanadi. Ya'ni, agarda shaxs o'g'irlik amalga oshirgan taqdirda, zararining summasi qancha bo'lishidan qat'iy



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

nazar, unga jinoiy javobgarlik belgilanadi, bunda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning (MJTK) 61-moddasida keltirilgan xolatlar mustasno xisoblanadi. Ispaniya qonunchiligiga ko'ra 400 yevrodan kam summani tashkil qiluvchi o'g'riliklar uchun aybdor shaxs, yil davomida kamida uch marotaba o'g'rilik qilgan bo'lishi shart. Ushbu holatdagina aybdorni Ispaniya Jinoyat kodeksining 234-moddasida belgilangan jinoiy javobgarlikga tortish mumkin bo'ladi. 400 yevrodan kam miqdorni tashkil qiluvchi o'g'rilik yil davomida birinchi yoki ikkinchi marotaba sodir etilsa, aybdor ma'muriy javobgarlikga tortiladi. Ispaniyadan uzoqlashmagan xolda, o'g'rilik jinoyatini Fransiya misolida muxokama qilishda davom etamiz.

Fransiya Jinoyat kodeksida o'g'rilik alohida moddalarda oddiy, xamda og'irlashtirilgan o'g'rilik ko'rinishida nazarda tutilgan. Oddiy o'g'rilik uchun uch yil ozodlikdan maxrum qilish va 45 ming yevro miqdorida jarimaga tortish belgilangan. Fransiya Jinoyat kodeksining o'g'rilik moddasining dispozitsiyasida jinoyat sodir etish usuli yashirin bo'lishi xaqida aytilmagan. O'zbekiston jinoyat qonunchiligiga ko'ra qilmishni o'g'rilik deb tan olish uchun u yashirin tarzda sodir etilishi lozim. Fransiya qonunchiligining yana bir farqli jixati shundaki, ularda bezorilik deb nomlanuvchi jinoyat mavjud emas, zo'rlik ishlatib o'zganing mol-mulkini talon-toroj qilish xam o'g'rilik deb tan olinadi. Qilmishni og'irlashtirilgan holda sodir etilgan o'g'rilik deb tan olish uchun esa quyidagi kvalifikatsion belgilari bo'lishi lozim, ya'ni o'g'rilik uyushgan jinoiy guruh yoki mansabdor shaxs (xokimiyat vakili) tomonidan sodir etilishi lozim. Neft quvurlarida, gaz quvurlarida, neft va gaz mahsulotlari quvurlarida sodir etilgan o'g'rilik Fransiya Jinoyat kodeksining o'g'rilik moddasida ko'zda tutilmagan.

O'zganing mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarni qiyosiy taxlil qilishni yana bir samarali ishlab keluvchi huquq tizimi egasi, Germaniya federativ respublikasi misolida ko'rib chiqamiz.

Germaniya jinoyat qonunchiligining birinchi navbatda e'tiborni tortadigan farqli jixati, bu o'zganing mulkini talon-toroj bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarni kodeksning boshqa-boshqa boblarida joylashganligidir. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining o'ninchi bobida o'zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq bo'lgan bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o'zlashtirish yoki



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish, firibgarlik va o‘g‘rilik kabi jinoyatlar o‘rin olgan. GFRning Jinoyat kodeksiga ko‘ra o‘g‘rilik va rastrata o‘n to‘qqizinchi, talonchilik va to‘vlamachilik yigirmanchi, takroriylik va o‘g‘irlangan mulkni o‘g‘irlash yigirma birinchi, xamda firibgarlik bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlar yigirma ikkinchi boblarida keltirilgan. Fransiya misolida keltirganimizdek, Germaniya jinoyat qonunchiligida ham bosqinchilik turidagi jinoyat mavjud emas. O‘zbekiston jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan bosqinchilik amalga oshirilganda Germaniyada ushbu qilmish o‘g‘rilik yoki talonchilik sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Misol uchun, Germaniya JKsining 244-moddasida “Qurol bilan, guruh bo‘lib o‘g‘rilik sodir etish, buzib kirib o‘g‘rilik qilish” turidagi jinoyat turi mavjud. Unga ko‘ra jinoyatchi qurol bilan tahdid qilib jabrlanuvchini qarshilik qilolmasligini ta‘minlash maqsadida o‘zi bilan qurol yoki boshqa asbob bilan o‘g‘rilik qilsa, ushbu xolatda 244-modda bo‘yicha jinoyatchi aybdor deb topiladi. (Germaniyada ham yashirin bo‘sa – o‘g‘rilik, ochiqchasiga bo‘sa talonchilik). Talonchilik jinoyati Germaniya JKsining 249-moddasida nazarda tutilgan va unga ko‘ra talonchilikning obyektiv tomoni shaxsga nisbatan kuch ishlatib yoki hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi tahdidni qo‘llab, o‘ziga yoki uchinchi shaxsga qonunga xilof ravishda o‘zlashtirib olish maqsadida bironing mulkini olib qo‘yish hisoblanadi. Agarda talonchilik qurol ishlatib yoki qurol bilan, zo‘rlik yoki taxdid amalga oshirgan xolda sodir etilsa jinoyatchi JKning 250-moddasiga ko‘ra, ya‘ni og‘irlashtirilgan talonchilik jinoyatini sodir etgan deb topiladi.

Germaniya Jinoyat kodeksining yana bir qiziqarli farqi shundaki, ushbu kodeksning 247-moddasida “Uy va oilaviy o‘g‘irlik” jinoyati nazarda tutilgan. Ushbu moddaga ko‘ra agar qarindoshi, vasiysi yoki homiysi o‘g‘irlik yoki o‘zlashtirish natijasida zarar ko‘rgan bo‘lsa yoki jabrlanuvchi huquqbuzar bilan bir uyda yashasagina, jinoyatchi ushbu moddaga ko‘ra aybdor deb topiladi, shuningdek faqatgina jabrlanuvchi bo‘lgan qarindoshi yoki bir uyda yashovchi shaxsning arizasiga ko‘ragina jinoyat ishi qo‘zg‘atiladi.

Endi esa qiyosiy tahlilimizni Osiyoning o‘z qadriyatlari va urf-odatlariga sodiq qolgan qolgan xolda o‘z huquq tizimini barpo qilgan davlat, Yaponiya misolida davom ettiramiz.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econferences.com

16th June, 2025

Yaponiya ham Fransiya va Germaniya kabi bosqinchilik jinoyatini o'z jinoyat kodeksida nazarda tutmagan. Yaponiya qonun chiqaruvchisi JKsining 241-moddasida Talonchilik paytida zo'rlik ishlatish jinoyatini keltirgan. O'zbekiston JKsida esa bunday norma mavjud emas. Yaponiya JKsida xam, xuddi Germaniyadagidek qarindoshlar o'rtasidagi o'g'rilik jinoyati mavjud, lekin asosiy farqi shundaki Yaponiyada o'g'rilik yaqin qarindoshlar, er-xotinlar yoki birga yashaydigan qarindoshlar o'rtasida sodir etilgan bo'lsa, jinoyatchi jazolanmaydi. Agar o'g'rilik boshqa qarindoshlar tomonidan sodir etilgan bo'lsa, u xolda jinoiy javobgarlik faqat jabrlanuvchining arizasiga ko'ra qo'zqatiladi. Yaponiya JKsining 239-moddasida boshqa davlatlarda mavjud bo'lmagan tartib nazarda tutilgan, bunda jabrlanuvchi bexush xolatda bo'lgan o'g'rilik talonchilikga tenglashtirilgan xarakat xisoblanadi. Agar o'g'ri jabrlanuvchini xushsiz xolatga keltirgandan keyin uning mol-mulkini o'g'irlasa, talonchilik sodir etgan deb tan olinadi.

MDH va Boltiqbo'yi mamlakatlari qonun chiqaruvchi organlari, O'zbekiston Respublikasi kabi, tovlamachilikni aynan mulkka qarshi jinoyat deb tan oladilar. (Rossiya, Gruzviya, Latviya, Ukraina). Ayrim davlatlarda tovlamachilik tarkibi, o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan birga, mulkka qarshi jinoyatlar to'grisidagi boblarga kiritilgan. Masalan, Estoniya JKda tovlamachilik tarkibi mulkka qarshi boshqa talon-toroj qilish bilan bog'lagan va uni mazkur jinoyat shakllaridan biri sifatida tan olingan.

Ukrainaning yangi jinoyat qonunida tovlamachilik VI bo'lim "mulkka qarshi jinoyatlar"da elektr tarmoqlari, aloqa kabel liniyalari va ularning asbob-uskunalarini demontaj qilib yoki boshqa usulda talon-toroj qilish (188- modda) va firibgarlik (190-modda) o'rtasidan o'rin olgan. Moldova Respublikasining Jinoyat kodeksida tovlamachilikka o'xshash bo'lgan va "shantaj" deb nomlangan qilmish tarkibi (189-modda) mulkka qarshi jinoyatlar to'grisidagi bobda bosqinchilik va firibgarlik o'rtasiga joylashtirilgan. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, mazkur davlatlarning jinoyat huquqida ham tovlamachilik o'zgarar mulkini talon-toroj qilish shakllaridan biri hisoblanadi.

Lekin MDH mamlakatlarining aksariyatida, masalan, Rossiya Federasiyasining jinoyat qonunida tovlamachilik o'zgarar mulkini talon-toroj qilishdan ajratilgan, biroq u bilan uzviy bog'liq bo'lgan, ya'ni o'xshash jinoiy qilmish hisoblanadi. Bu



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econferences.com

16th June, 2025

holatga, odatda, mulkka qarshi jinoyatlarni ogirlashtiruvchi holatlarga berilgan ta'rifda ishora qilinadi. Masalan, Qirg'iziston jinoyat qonunida "ilgari o'zgalarning mulkini talon-toroj qilish yoki tovlamachilik uchun ikki yoki undan ortiq marta sudlangan shaxs tomonidan sodir etilgan tovlamachilik" (JK 170-moddasi uchinchi kismining 1-bandi), deyiladi.

Shunday qilib, MDH va Boltiqbo'yi mamlakatlarida tovlamachilik tarkibi milliy huquqiy an'analar va tarixiy o'ziga xosliklarga qarab o'zgalarning mulkini talon-toroj qilish sifatida tan olinadi yoki tan olinmaydi.

Ko'rib chiqilayotgan davlatlar jinoyat qonunlarining aksariyatida tovlamachilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddalarning dispozitsiyalari, O'zbekiston Respublikasi JK dagi kabi, tavsifiy xususiyatga ega, ya'ni ularda mazkur jinoyat tarkibining belgilari ko'rsatilgan.

MDH mamlakatlari, shuningdek boshqa xorij davlatlarining jinoyat huquqida jinoiy jazoga loyiq qilmish sifatidagi tovlamachilik turlicha talqin qilingan. Masalan, Qozog'iston jinoyat qonunida tovlamachilikka berilgan ta'rif Rossiya jinoyat huquqidagi shunday ta'rif bilan deyarli bir xil. Boshqa davlatlarda esa, mulkka tajovuzning mazkur turiga boshqacha ta'rif berilgan.

Tovlamachilikning "mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni yoxud mulkiy yo'sindagi boshqa harakatlar sodir etishni talab qilish" degan ta'rifi MDH va Boltiqbo'yi mamlakatlarining jinoyat qonunlarida deyarli bir xil bo'lib, bu taxlil qilinayotgan tarkibni shakllantirishga sobiq sovet jinoyat huquqi maktabi ancha kuchli ta'sir etganligidan dalolat beradi.

Bunda Ozarbayjon, Tojikiston, Ukraina, Estoniya va boshqa davlatlarning qonunlarida tovlamachilik sodir etish vaqtida jinoyatchining talabi qaratilgan mulk aynan birovga tegishli bo'lishi lozimligi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan (Gruziya JKda o'zganing narsasi to'grisida so'z yuritiladi). Latviya JKning 183-moddasida "huquqiy asoslar mavjud bo'lmagan xolda" degan ta'rif qo'llangan bo'lib, u ham mulkni ham mulkiy huquqni topshirishga va mulkiy yo'sindagi boshqa harakatlar sodir etishga taalluqlidir.

Gruziya JKda tovlamachilikka nisbatan sobiq ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunlarining aksariyatida qo'llangan "mulkiy yo'sindagi boshqa harakatlar sodir etish" "mulkiy naf ko'rish" degan ibora bilan almashtirgan.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econferences.com

16th June, 2025

Tovlamachilik sodir etishda yuqoridagi talablar aybdorning jabrlanuvchini bu talablarni bajarishga majbur qiladigan muayyan harakatlari bilan mustahkamlanadi. MDX davlatlari va O‘zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi organi bunday harakatlarga an’anaviy tarzda jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo‘rluk ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilish bilan qo‘rqitish, deb ta’rif bergan.

Ukraina jinoyat qonuniga ko‘ra, jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilari mulkiga shikast yetkazish yoki uni nobud qilish bilan qo‘rqitish bilan bir qatorda, mazkur shaxslarga ishonib topshirilgan yoki ular qo‘riqlayotgan mulkka nisbatan ham shunday xarakterli sodir etish bilan qo‘rqitish ham tovlamachilikning belgisi hisoblanadi (JKning 189-moddasi), Ozarbayjon qonun chiqaruvchi organi tomonidan tovlamachilik belgilari qatoriga faqat o‘zganing mulkini nobud qilish bilan qo‘rqitishni kiritilgan va unga shikast yetkazish haqida hech narsa deyilmagan (JKning 182-moddasi).

Moldova Respublikasining jinoyat qonunida tovlamachilik (yoki shantaj) tarkibini shakllantirish mazkur jinoyatning belgilari qatoriga nafaqat zo‘rluk ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish bilan qo‘rqitish, balki jabrlanuvchiga “ta’sir ko‘rsatish” vositasi sifatida mulkdor, mulk egasi yoki undan foydalanuvchini o‘g‘irlash bilan qo‘rqitish ham kiritilgan.

MDH va Boltiqbo‘yi mamlakatlarining jinoyat qonunlarida tovlamachilikda zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitilishi mumkin bo‘lganlar sifatida har xil shaxslar ko‘rsatilgan. Masalan, Rossiya JKning 163-moddasida (shuningdek, Ozarbayjon JKda) binoan, jabrlanuvchi faqat nazarda tutilishi mumkin yoki ular O‘z Res JKning 165-moddasidagi kabi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan jabrlanuvchi yoki uning yaqin qarindoshlari (Gruziya, Ukraina JK), jabrlanuvchi yoki uning yaqinlari (Belarus, Latviya, Tojikiston JK), shaxs (Estoniya), shaxs yoki uning qarindoshlari va yaqinlari (Moldva JK) kiritilgan.

Xulosa:

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mazkur turdagi jinoyatlar doimi rivojlanib boradi hamda yangicha ko‘rinishda amalga oshirilishda davom etadi. Shu bilan birga,



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

ushbu turdagi jinoyatlarni tahlil qilish hamda ularni tasniflashning yangi nazariy va amaliy metodlarini ishlab chiqish ham zaruriy ehtiyojga aylanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.X.Rustambayev “O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
3. Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksi.
4. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi.
5. Ukraina Jinoyat kodeksi.
6. Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksi.
7. Yaponiya Jinoyat kodeksi.
8. Fransiya Jinoyat kodeksi.
9. Gruziya Jinoyat kodeksi.
10. Ozarbayjon Jinoyat kodeksi.
11. Ispaniya Jinoyat kodeksi.
12. Qozog‘iston Jinoyat kodeksi.
13. Qirg‘iziston Jinoyat kodeksi.